

JAMIYATDADA AYOLLAR SIYOSIY MAS’ULIYATINI RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI

Juraboyeva Dilmura

Farg’ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18796532>

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatda ayollar siyosiy mas’uliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy vazifalari tahlil etiladi. Xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda gender tengligi tamoyillarini amalga oshirish, ayollarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish, siyosiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ayolar mas’uliyati, mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyat, islohot, fidoyilik, barch, majburiyat va ijtimoiy vazifa.

Xotin-qizlar masalalari borasidagi davlat siyosati, shuningdek, jamoat tashkilotlari va birlashmalari faoliyati doirasida xotin-qizlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ma’lum ma’noda gender omilini hisobga olishni talab qiladi. Biz mazkur tadqiqotda gender masalasini tadqiq qilishni maqsad qilib olmagan bo‘lsakda, xotin-qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonlari ushbu omil bilan bo‘liqdir. Chunki, amaliyotning o‘zi davlat siyosatida har qanday holatda ham gender masalasi siyosiy ijtimoiylashuvning ajralmas qismi ekanligini isbotlab beradi.

Insoniyat hayoti taraqqiy etib borgani sayin uning siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlari hamda unga talab ham kuchayib boraveradi va u o‘z o‘rnida yangicha munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo‘ladi. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlari birinchi galda, jamiyat va davlat hayotining asosi bo‘lgan insonlarning siyosiy madaniyati va uning saviyasi, darajasi bilan bo‘liqdir. Chunki, aynan siyosiy ijtimoiylashuv aholining siyosiy madaniyatida aks etadigan omil hisoblanadi.

“Siyosiy madaniyatning shakllanishi, qayta vujudga kelishi va rivojlanishi odamlar uning me’yorlarini, namunalari va xulq-atvor andozalarini, an’analarni o‘zlashtirishi va qo‘llab-quvvatlanishi orqali amalga oshadi. Inson tomonidan xulq-atvorning rol va maqom talablari, madaniy qadriyatlar va intilishlarning o‘zlashtirilishi unda ushbu siyosiy tizimga moslashish va muayyan funksiyalarni bajarish imkonini beruvchi sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Bu siyosiy ijtimoiylashuv deb ataladi[1].

Xususan, Devid Iston rahbarligidagi chikagolik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy ijtimoiylashuvning klassik nazariyasida siyosiy ijtimoiylashuvni insonning siyosat sohasida rol bajarishi uchun zarur bo‘lgan maxsus funksiyalarni o‘rganish jarayoni sifatida talqin qilingan. Ushbu nazariyani qo‘llab-quvvatlagan boshqa olimlar, xususan L.Koyen, R.Lipton, T.Parsons shu bilan birga asosiy e’tiborni insonning siyosiy tizim va uning institutlari bilan o‘zaro munosabatlari masalalariga qaratganlar.

Ma’lumki, kishilik jamiyatida siyosiy hayotning barqarorligi, samaradorligi ta’minlanishi uchun ushbu jarayonlarda ishtirok etadigan subyektlarning manfaatlari qondirilishi talab etiladi. Shundan kelib chiqib aytish lozimki, jamiyat siyosiy tizimining barqaror rivojlanishi va

mavjud bo'lishini ta'minlash uchun fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish va uni doimo rivojlantirib borish talab etiladi. Siyosiy madaniyatni yuksaltirish insonlarning siyosiy xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirishi hisobidan amalga oshiriladi. Demak, fuqarolar tomonidan jamiyat va davlat hayotiga daxldorligi ortib borishi, ular tomonidan qadriyatlarning, xulq-atvor va me'yorlarning o'zlashtirilishi, aynan ijtimoiylashuvni anglatadi. Shuningdek, siyosiy ijtimoiylashuv deganda individning jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, jamiyat siyosiy hayotidagi o'ziga mos ishtirokini ta'minlab beradigan siyosiy xulq-atvorning siyosiy yo'nalishlarini, qoidalarini va modellarini o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. Siyosiy ijtimoiylashuv siyosatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya fanlarida eng muhim va qiziqarli mavzulardan bo'lsada, ammo bugunga qadar ushbu fanlarda mazkur masala yuzasidan, xususan uning mazmuni, davomliliigi va bosqichlari to'g'risida aniq bir to'xtamga kelinmagan[2].

Qadim zamonlardan boshlab, xotin-qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvi masalasi muhim va murakkab muammolardan bo'lib kelgan. Chunki, ayollarning jismoniy jihatdan erkaklardan zaifligi, ularning tabiati va ruhiyatida bo'ysinuvchanlik unsurlarining mavjud bo'lganligi, urushlar va bosqinlarda ularning ishtiroki nisbatan kam bo'lganligi natijasida hal qiluvchi kuch sifatida shakllana olmaganligi, xotin-qizlar huquqlarining tarixan cheklaganligi kabi omillar xotin-qizlar siyosiy ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyatini tashkil qilgan.

Asta-sekin zamonlar o'zgarishi, xotin-qizlarning tarixiy jarayonlarda ba'zi bir qaxramonlik ko'rsatganliklari, (To'maris, Janna d'Ark va b.) ularning o'z huquq va erkinliklari uchun kurashishlari natijasida xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi faolliklari ham kuchayib bora boshladi. Buning eng katta sabablaridan biri sifatida xotin qizlarning o'z haq-huquqlarini anglab yetganliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

Xotin-qizlar siyosiy ijtimoiylashuvi asosan, ularda yetakchilik qobiliyatining yana-da ravshan namoyon bo'lishida ko'zga tashlana boshladi. Bundan tashqari, ularning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda mavqega va o'ringa ega bo'lishida o'z aksini topdi. Ularning huquqiy va siyosiy himoyalanganlik darajalari oshib bordi. Bugungi kunda, jahon miqyosida xotin-qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvi shu darajada yuqori darajaga ko'tarildiki, buning hosilasi o'laroq, turli davlatlarda (nafaqat G'arb, balki Sharq mamlakatlarida ham) ushbu jins vakillari hissasiga davlat va hukumatni boshqarish, parlament yoki vazirliklarni boshqarish vazifalari to'g'ri kelayotganligiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Xulosa qilganda, xotin-qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvi bevosita jamiyatning umumiy madaniyati bilan bog'liq bo'lib, qaysi jamiyatda demokratiyaning elementlari ustun bo'lsa, o'sha jamiyatda ularning faolligi, siyosiy ijtimoiylashuvi yuqori bo'lmoqda. Adolat yuzasidan, tan olib aytish lozimki, bugungi kunda Yevropa davlatlari Osiyo yoki Afrika davlatlaridan bu borada bir muncha ildamlab ketganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, Sharq jamiyatlarida oxirgi yillarda kuzatilayotgan voqeliklar ham xotin-qizlarning siyosiy ijtimoiylashuvi kun sayin faollashib borayotganligidan darak beradi. Bunga misol tariqasida, hattoki bir necha yillar davomida fuqarolar, millatlar va diniy qarama-qarshiliklar girdobida qolayotgan Afg'onistonda ham mamlakat siyosiy hayotiga xotin-qizlarning qadam qo'yayotganliklarini ijobiy o'zgarishlarning yaqqol timsoli sifatida ko'rsatish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish. –T.: Yangi asr avlodi (o‘zbekcha nashri), 2004. –B.330.
2. Politicheskaya sotsializatsiya: suщnost, etapi, faktori.
<http://kulturoznanie.ru/politology/politicheskaya-socializaciya-sushhnost-etapy-factory/>
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib , yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. –B. 102.
4. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B.59 .